

Yo'l Hozirlang

Masihning Kelishi | 1 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Isroil xalqidan bo'lgan ko'plarni u Egasi Xudoga qaytaradi. U Ilyos payg'ambarning ruhi va qudratiga to'lib, Rabbimiz Masihdan oldin keladi. Rabbimizga tayyor bir xalqni taqdim qilish uchun otalarning yuraklarini farzandlariga moyil qiladi, itoatsizlarning fikrini solihlar donoligi tomon buradi. (Luqo 1:16-17)

Yahyo Cho'mdiruvchi Isroil xalqi uchun nima qilgan bo'lsa, Mavlud bayrami arafasi ham biz uchun xuddi shu ishni qiladi. Mavludga tayyorgarlik qilib ketmang. Men *ruhiy* tayyorgarlikni nazarda tutyapman. Agar tayyorgarlik ko'rgan bo'lsangiz, uning quvonchi va ta'siri juda katta bo'ladi!

Shunday qilib, *tayyorgarlik ko'rish* uchun ...

Avvalo, Najotkorga muhtoj ekanligimiz haqida mulohaza qiling. Mavlud – quvonchga aylanishidan oldin ayblov xulosasi ramzidir. “Bugun Dovud shahrida sizlar uchun *Najotkor* tug'ildi. U Masihdir, bizning Rabbimizdir” (Luqo 2:11). Agar siz Najotkorga muhtoj bo'lmasangiz, Mavludga ham muhtoj emassiz. Najotkorga nihoyatda muhtoj ekanimizni his qilmagunimizcha, Mavlud biz kutgan natijani bermaydi. Masihning kelishi haqidagi ushbu qisqa mulohazalar qalbingizda Najotkorga muhtojlik tuyg'usini uyg'otsin.

Ikkinchidan, o'zingizni diqqat bilan tekshiring. Ro'za tutish Fisih uchun qanday ahamiyatli bo'lsa, Mavludga tayyorlanish - bayram arafasi Mavlud uchun shunday ahamiyatli. “Tekshirib ko'r meni, ey Xudo, yuragimni bil, sinab ko'r meni, tashvishlarimni bil. Bilgin-chi, mening biron bir qabihligim bormikan? Meni abadiy yo'ldan yetaklab borgin” (Zabur 138:23-24). Uyini tozalash orqali har bir yurak *U uchun joy hozirlasin*.

Uchinchidan, uyingizda, ayniqsa, bolalar uchun Xudoga qaratilgan kutish va xursandchilik muhitini yarating. Agar siz Masih bilan xursand bo'lsangiz, bolalaringiz ham xursand bo'ladi. Agar Mavlud bayramiga faqatgina moddiy narsalar bilan bezak bersangiz, farzandlaringiz Xudoga tashna bo'lishni qanday o'rganishadi? Farzandlaringiz Shohning kelishi mo'jizasini ko'ra olishlari uchun tasavvuringizni ishga soling.

To'rtinchidan, Muqaddas Bitiklarni chuqurroq o'rganing va ahamiyatli parchalarni yod oling! “Mening so'zim olovday kuydiradi. Qoyani yoradigan bolg'aday zarba beradi.’ Egamizning kalomi shudir” (Yeremiyo 23:29)! Masihning kelishi arafasida ushbu gulxan atrofida to'planing. Uning tafti iliq. Undan inoyat ranglari nur sochadi. Minglab jarohatlarga malham bo'ladi. U zulmat uchun nurdir.

“Egamizga Yo'l Hozirlang!” nomli maqolasidan olingan

Maryamning Ulug'vor Xudosi

Masihning Kelishi | 2 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Butun vujudim bilan Egamni ulug'layman, Najotkorim Xudodan ko'nglim shod-xurram. Axir, U menday arzimas bandasiga nazar soldi. Jamiki nasllar endi meni baxtli deb aytadi. Zotan, qudratli Xudo men uchun buyuk ishlar qildi, Muqaddasdir Uning nomi. Undan qo'rqanlarga U nasllar osha marhamat qiladi. U O'zining qudratini ko'rsatdi, yuragi takabburlarni to'zg'itib tashladi. Hukmdorlarni taxtlaridan tushirdi, faqirlarni esa yuksaltirdi. Ochlarni ne'matlar ila to'ydirdi, boylarni esa quruq jo'natdi. Otabobolarimizga bergan va'dasi bo'yicha, Ibrohimga, uning nasliga shafqat qilishni to' abad yodida tutdi. Quli Isroilga yordam berdi. (Luqo 1:46-55)

Maryam Xudoning ajoyib rejasini ko'ra oldi: U butun insoniyat tarixini o'zgartirmoqchi; barcha zamonlar uchun eng muhim bo'lgan o'ttiz yillik davr boshlanish arafasida.

Xo'sh, Xudo qaerda? Xudo biri qari va bepusht (Elisabet), boshqasi esa yosh va bokira (Maryam) bo'lgan noma'lum va hokisor ikki ayol bilan band. Maryam kambag'allarni sevadigan Xudoning ushbu vahiysidan shunchalik ta'sirlandiki, keyinchalik "Madhiya" (Magnifikat) nomi bilan mashhur bo'lgan qo'shiq kuyladi.

Luqo uchun Maryam va Elisabet ajoyib qahramon bo'lgan. Luqoga bu ayollarning imoni yoqardi. Aftidan, uni eng ta'sirlantirgan va bu haqda uning Xushxabarini o'qiydigan himmatli inson Teofilga ma'lum qilishni istagan narsa – ulug'vor Egasiga o'zini bag'shlaydigan Elisabet bilan Maryamning kamtarligi va hokisorligi edi.

Elisabet shunday deydi (Luqo 1:43): "Men kim bo'libmanki, Rabbim Masihning onasi mening huzurimga kelibdi!" Maryam esa bunday deydi (Luqo 1:48): "Axir, U menday arzimas bandasiga nazar soldi."

Butun qalbi bilan Egamizni chin yurakdan ulug'laydigan insonlar Elisabet va Maryamga o'xshagan insonlardir, ular o'zlarining arzimas banda ekanini tan olgan va ulug'vor Xudoning ko'ngilchanligidan hayratga tushganlar.

"Madhiya Haqida Mulohaza" nomli maqolasidan olingan

Uzoq Kutilgan Tashrif

Masihning Kelishi | 3 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Isroil xalqining Xudosi – Egamizga hamdu sanolar bo'lsin! U bizga yordamga keldi, O'z xalqini asoratdan halos qildi. Azaldan bizga va'da berganday, muqaddas payg'ambarlari orqali aytganday, quli Dovud xonadonidan bizga qudratli Najotkorni yubordi. Toki U bizni dushmanlarimizdan qutqarsin, bizdan nafratlanadiganlarning hammasidan halos etsin. (Luqo 1:68-71)

Luqo 1 – bobda Elisabetning eri Zakariyo aytgan ushbu so'zlardan ikkita ajoyib narsaga e'tibor bering.

Birinchidan, to'qqiz oy avval Zakariyo xotini farzand ko'rishi mumkinligiga ishona olmasdi. Endi esa, Muqaddas Ruhga to'lgan holda, Xudoning Masih orqali dunyoni qutqarish ishlariga shunchalik ishonchdiki, buni o'tgan zamon shaklida ifoda etdi: "U bizga yordamga keldi, O'z xalqini asoratdan halos qildi." Imon nuqtai nazaridan, Xudo va'da qilgan hatti-harakat qanchalik yaxshi bo'lsa, uni amalga oshishi ham shunday yaxshi bo'ldi. Zakariyo gap so'zlari bilan ham Xudoga ishonishni o'rgandi, shuning uchun ajoyib ishonchga ega bo'ldi: Xudo "yordamga keldi va halos qildi!" (Luqo 1:68).

Ikkinchidan, Iso Masihning kelishi – Xudoning bu olamga tashrif buyurishi, demakdir. *Isroilning Xudosi* keldi va qutqardi. Asrlar davomida Yahudiyalar Xudo ularni tark etdi, degan fikrga kelib qolgandilar: bashorat ruhi so'ngandi; Isroil xalqi Rim mustamlakasiga aylangandi. Va Isroildagi hamma xudojo'ylar Xudoning kelishini kutayotgan edilar. Luqo yana bir mo'ysafid haqida, solih va taqvodor Shimo'n haqida shunday deydi: u "Isroilning najot topishini intizor bo'lib kutar edi" (Luqo 2:25). Xuddi shunday, ibodatga berilgan Xanna ham "Quddusning ozod qilinishini intizorlik bilan kutayotgan" edi (Luqo 2:38). Bu kunlar buyuk kutish davri edi. Endi esa, uzoq kutilgan Xudoning tashrifi amalga oshadigan vaqt kelgandi, U hech kim kutmagan yo'l bilan kelishi kerak edi.

"Iso - Najot Shoxi" nomli maqolasidan olingan

Xudoning Kichik Xalqi Uchun

Masihning Kelishi | 4 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

O'sha kunlarda Qaysar Avgust: "Butun Rim imperiyasidagi aholi ro'yxatga olinsin", degan farmon chiqardi. Bu ilk aholi ro'yxati bo'lib, Suriyada Kvirinyus hokimi bo'lgan paytda o'tkazildi. Ro'yxatdan o'tish uchun hamma o'z shahriga bordi. Yusuf ham Jaliladagi Nosira shahridan Yahudiyaning Baytlahm shahriga yo'l oldi. Bu shahar Dovud shahri edi. Yusuf Davud xonadonidan, uning naslidan edi. Yusuf ro'yxatdan o'tgani Maryamni ham o'zi bilan olib ketdi. Maryam Yusufga unashtirilgan bo'lib, farzand kutayotgan edi. (Luqo 2:1-5)

Masihning Baytlahmda tug'ilishini Xudo oldindan belgilab qo'yganini (Mixo 5:2 da bashorat qilinganidek), vaqti-soati kelganda, Xudo buyurganidek, Masihning onasi va qonuniy otasi Baytlahmda emas, Nosirada yashagani, va'dasini bajarish va ilk Mavlud kunida hech kim tanimaydigan, oddiy ikki insonni Baytlahmga olib kelish uchun butun Rim imperiyasidagi aholini o'z shahrida ro'yxatga olish fikrini Xudo Qaysar Avgustning ko'ngliga solgani qanchalik hayratlanarli ekani haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Ikki inson yetmish mil (100 kilometr) yo'l bosishi uchun butun dunyoga farmon berildi!

Barcha yangiliklar yirik siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy harakatlar, dunyo miqyosida katta kuch-qudratga va obro'-e'tiborga ega insonlar haqida so'z yuritiladigan yetti milliard aholi yashaydigan bu olamda siz ham xuddi mendek o'zingizni arzimasi va ahamiyatsiz ekaningizni his qilganmisiz?

Agar shunday his qilgan bo'lsangiz, bu hislar ko'nglingizni tushirmasin, o'zingizni baxtiqaro deb o'ylamang. Zero, Muqaddas Bitiklarda aytilishicha, barcha ulkan siyosiy kuchlar va barcha ulkan sanoat majmualari ham o'zlari bilmagan holda Xudoning xalqi uchun – oddiy Maryam va oddiy Yusufni Nosiradan Baytlahmga yetkazish uchun Xudo tomonidan boshqariladi. Xudo O'z va'dasini bajarish va O'z farzandlarini marhamatlash uchun buyuk imperiyani boshqaradi.

O'zingizning kichik olamingizda qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganingiz uchun Egamizning qo'li kalta, deb o'ylamang. Xudo bizning farovon hayot kechirishimiz yoki obro'-e'tiborli bo'lishimiz uchun emas, balki muqaddas bo'lishimiz uchun jon kuydiradi. Mana shu maqsadi yo'lida butun dunyoni boshqaradi. Hikmatlar 21:1 – oyatda aytilganidek: "Shohning yuragi Egamizning qo'lida, uni irmoqday xohlagan tomonga buradi." U har doim najot beruvchi, poklovchi va abadiy maqsadini O'z xalqi orasida amalga oshirish uchun uni irmoqdan xohlagan tomonga buradi.

U oddiy insonlar uchun buyuk Xudodir va quvonishimiz uchun ajoyib sabab bor, chunki biz, ya'ni Xudoning farzandlari Xudoning O'g'li Iso Masihga o'xshab borishimiz va Uning abadiy ulug'vorligiga kirishimiz uchun dunyoning barcha shohlari, prezidentlari, vazirlari, kanslerlari va rahbarlari o'zlari bilmagan holda Xudoning farmonlarini bajarishadi.

"Kichik Xalq uchun Buyuk Xudo" nomli maqolasidan olingan

Go'lgotadan Boshqa Yo'l Yo'q

Masihning Kelishi | 5 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Ular o'sha yerda bo'lganlarida Maryamning oy-kuni to'ldi. U o'zining to'ng'ich o'g'lini tug'di. Uni yo'rgaklab, oxurga yotqizib qo'ydi, chunki mehmonxonada ularga joy yo'q edi. (Luke 2:6-7)

Agar Xudo butun olamni boshqarsa, Maryam va Yusufni Baytlahmga olib kelish uchun butun imperiya aholisini ro'yxatga olishga undagan bo'lsa, U albatta, mehmonxonada ular uchun joy hozirlab qo'ygan bo'lardi, deb o'ylashingiz mumkin.

Ha, U joy tayyorlab qo'ya olardi. Bu ish Xudo uchun muammo emasdi. Iso ham boy oilada dunyoga kelishi *mumkin* edi. U sahroda toshni nonga aylantirishi *mumkin* edi. Getsemaniya bog'ida O'z huzuriga 10,000 ta farishtani chaqirishi *mumkin* edi. Xochdan tushib, O'zini qutqarishi *mumkin* edi. Gap Xudo nima qilishi *mumkinligida* emas, balki U nimani *xohlashida*.

Xudoning irodasi shu ediki, Masih boy bo'la turib, siz uchun kambag'allashdi. Baytlahmdagi mehmonxonalardagi "Bo'sh joy yo'q", degan yozuv ham aynan siz uchun edi. "U boy bo'lsa ham, sizlarni boy qilish uchun kambag'allashdi" (2-Korinfliklar 8:9).

Xudo O'z farzandlari uchun hamma narsalarni, hatto mehmonxona hamda turar joylarni qisqa muddatga ijaraga berish bilan shug'ullanadigan boshqa har qanday idoralar imkoniyatlarini ham boshqaradi. Go'lgotaga olib boruvchi yo'l Baytlahmdagi "Bo'sh joy yo'q" degan yozuvdan boshlanib, Quddusda tupurish va xochni mas'hara qilish bilan tugaydi.

Uning quyidagi so'zlarini unutmasligimiz lozim: "Kimda-kim Menga ergashishni istasa, o'zidan kechsin va har kuni o'z xochini ko'tarib, ortimdan yursin" (Luqo 9:23).

Go'lgotaga olib boradigan yo'lda biz Unga hamrohlik qilamiz va Uning so'zlarini eshitamiz: "Qul o'z xo'jayinidan ustun emas degan so'zimni eslanglar. Agar Meni quvg'in qilgan bo'lsalar, sizlarni ham quvg'in qiladilar" (Yuhanno 15:20).

His-tuyg'uga to'lib, "Qaerga borsangiz ham, men ortingizdan boraman", degan odamga Iso shunday javob beradi: "Tulkilarning uyalari bor, qushlarning inlari bor. Inson O'g'lining esa bosh qo'yadigan joyi yo'q" (Luqo 9:57-58).

Ha, Iso tug'ilgan vaqtda Xudo xona tayyorlab qo'ya olardi. Biroq bu Go'lgotaga olib boradigan yo'ldan chetga chiqib ketish bo'lardi.

"Kichik Xalq uchun Buyuk Xudo" nomli maqolasidan olingan

6-DEKABR

Undan Marhamat Topganlarga Tinchlik Bo'lsin

Masihning Kelishi | 6 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

"Mana, sizlarga Uning belgisi: oxurda yotgan, yo'rgaklangan Chaqaloqni topasizlar." Birdan farishtaning yonida samo lashkari bo'lmish son-sanoqsiz farishtalar paydo bo'ldi. Ular Xudoga hamdu sano aytardilar: "Falak toqidagi Xudoga sharaflar bo'lsin, Xudodan marhamat topgan yerdagi bandalarga tinchlik kelsin!" (Luqo 2:12-14)

Tinchlik kim uchun? Farishta aytgan hamdu sanoda jiddiy ohang mavjud. Xudo rozi bo'lgan insonlar orasidagi tinchlik. Xudoni mamnun qilgan insonlar orasidagi tinchlik. Biroq ishonmasdan turib, Xudoni mamnun qilish imkonsiz (Ibroniylar 11:6). Shuning uchun Mavlud bayrami hammaga ham tinchlik keltirmaydi.

"Hukm shunday dalilga asoslangan", deydi Iso, "dunyoga nur keldi, ammo odamlar nurdan ko'ra, zulmatni yaxshi ko'rdilar, chunki ularning qilmishlari yovuz edi" (Yuhanno 3:19). Yoki bo'lmasa, mo'ysafid Shimo'n chaqaloq Isoni shunday degan: "Mana shu go'dak Isroil xalqi orasida ko'p odamlarning qulashiga va yuksalishiga sababchi bo'ladi. U Xudodan alomat bo'ladi ... Natijada, ko'plarning sirli fikrlari oshkor bo'ladi" (Luqo 2:34-35). Eh, zerikarli va ayozli Mavlud kuniga qarab, qarshilik qilish belgisidan boshqa hech narsani ko'rmaydiganlar qancha.

"U O'z yurtiga keldi, lekin O'z xalqi Uni qabul qilmadi. Ammo Uni qabul qilganlarning hammasiga, Unga imon keltirganlarga, U Xudoning farzandi bo'lish huquqini berdi" (Yuhanno 1:11-12). Iso faqat shogirdlarigagina shunday dedi: "Men sizlarga tinchlikni qoldiryapman. O'z tinchligimni sizlarga beryapman. Men berayotgan tinchlik dunyo beradigan tinchlikka o'xshamaydi. Yuragingiz siqilmasin, qo'rqmanglar" (Yuhanno 14:27).

Xudoning tinchligidan bahramand bo'ladigan, barcha aql-idrokka ega bo'lgan insonlar – ibodat va iltijoda bo'lib, har bir muhtojligini Xudoning oldida minnatdorchilik bilan izhor qiladigan insonlardir (Filippiliklar 4:6-7).

Xudoning tinchlik xazinasini ochadigan kalit – Xudoning va'dalariga ishonishdir. Shuning uchun Pavlus shunday ibodat qilgan: "Imon yo'lidan yurar ekansiz, umid manbai bo'lgan Xudo qalbingizni sevinch va tinchlikka to'ldirsin" (Rimliklar 15:13). Biz Xudoning va'dalariga ishonganimizda va sevinch, tinchlik hamda sevgiga to'lganimizda Xudo ulug'lanadi.

Falak toqidagi Xudoga sharaflar bo'lsin, Xudodan marhamat topgan yerdagi bandalarga tinchlik kelsin! Barcha xalqlar, tillar, qabilalar va elatlar orasida Xudoga ishonganlarning hammasiga tinchlik kelsin!

“Kichik Xalq uchun Buyuk Xudo” nomli maqolasidan olingan

Munajjimlar uchun Masih

Masihning Kelishi | 7 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Iso shoh Hirodning hukmronligi davrida, Yahudiyadagi Baytlahm shahrida tug'ilgan edi. Oradan ko'p o'tmay sharqdan Quddusga munajjimlar kelishdi. Ular: - Yahudiylarning yangi tug'ilgan shohi qayerda? - deb so'radilar. (Matto 2:1-2)

Luqodan farqli ravishda, Matto bizga Isoni ziyorat qilish uchun og'ilxonaga kelgan cho'ponlar haqida gapirmaydi. U Isoga ta'zim qilish uchun sharqdan kelgan musofirlarga, ya'ni Yahudiy bo'lmagan insonlar – g'ayriyahudiylarga e'tibor qaratadi.

Shunday qilib, Matto o'z Xushxabarining boshida va oxirida Isoni faqat Yahudiylar uchun emas, balki barcha xalqlar uchun Najotkor sifatida tasvirlaydi.

Isoga birinchilardan bo'lib ta'zim qilgan sehrgarlar, munajjimlar yoki donishmandlar Isroil xalqidan emas, balki sharqdan kelgan, ehtimol Bobildan kelgan odamlar bo'lishgan. Ular g'ayriyahudiylar edi. Eski Ahdning bir qator qonunlariga ko'ra, ular nopok odamlar edi.

Matto Xushxabarining oxirida Isoning quyidagi so'zlari berilgan: "Yeru osmondagi butun hokimiyat Menga berilgan. Shuning uchun borib, barcha xalqlardan shogird orttiringlar" (Matto 28:18-19).

Bu esa biz, g'ayriyahudiylarga nafaqat Masih orqali shodlikka erishishimiz uchun yo'l ochdi, balki Uning Masih ekaniga yana bir dalil qo'shdi. Chunki takror-takror aytilgan bashoratlarning bittasi shuki, xalqlar va podshohlar Uni dunyoning Hukmdori ekanini tan olishadi. Misol uchun, Ishayo 60:3 - oyatda shunday yozilgan: "Xalqlar Sening nuringga keladi, tonggi yorug'ligingga shohlar keladi."

Shunday qilib, Matto Isoning Masih ekanligiga dalil qo'shdi va Uning nafaqat Isroil xalqi uchun, balki barcha xalqlar uchun Masih, Shoh hamda Va'dalarni Ado Etuvchi ekanini ko'rsatdi.

"Biz Unga Ta'zim Qilgani Keldik" nomli maqolasidan olingan

8-DEKABR

Baytlahmning G'ayritabiiy Yulduzi

Masihning Kelishi | 8 – kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Yahudiylarning yangi tug'ilgan shohi qayerda? – deb so'radilar. – Biz Uning yulduzi chiqqanini ko'rdik. Unga ta'zim qilgani keldik. (Matto 2:2)

Muqaddas Kalom ma'lum voqealarni qanday sodir bo'lgani haqidagi qiziqishlarimizni qayta-qayta chalkashtirib yuboradi. Ushbu "yulduz" munajjimlarni qanday qilib sharqdan Quddusga olib keldi?

Kalomda yulduz ularni Quddusga boshlab bordi yoki ularning oldilarida bordi, deb aytilmagan. Faqatgina munajjimlar sharqda yulduz ko'rgani (Matto 2:2) va Quddusga kelgani haqida aytadi. Matto 2:9 da aytilganidek, bu yulduz Quddusdan Baytlahmgacha bo'lgan besh mil (8 kilometr) masofalik yo'lda munajjimlarning oldida qanday borgan? Qanday qilib bu yulduz "Bola yotgan joy tepasiga kelib to'xtadi"?

Javob quyidagicha: Biz buni bilmaymiz. Buni sayyoralar, kometalar, yangi yulduzlar yoki g'aroyib nurlarning bog'lanishi nuqtai nazaridan tushuntirishga ko'p urinishlar mavjud. Biz shunchaki bilmaymiz. Sizlarga maslahatim shuki, ruhiy ahamiyati juda kam bo'lgan taxminiy nazariyalarga ishonib qolmang.

Sizlarni ogohlantirish uchun umumlashtirishga urinib ko'raman: yulduz qanday harakat qilgani, Qizil Dengiz qanday ikkiga bo'lingani, osmondan manna yoqqani, Yunus nahangning qornida qanday tirik qolgani yoki oyning qonga belanishi kabi hodisalarni o'ylash bilan band bo'lgan odamlarni men, chegaralangan mentelitetga ega odamlar deb atayman (bunday odamlarni ko'proq ikkinchi darajali narsalar qiziqtiradi).

Bunday odamlar Xudoning muqaddasligi, gunohning yomonligi, insonning ojizligi, Masihning o'limi, faqat imon orqali oqlanish, Ruhning poklash ishlari, Masihning qaytib kelishining ulug'vorligi hamda so'nggi hukm kabi Xushxabarning eng ahamiyatli narsalariga alohida e'tibor bilan qaraganlarini ko'rmaysiz. Menimcha, ular yangi maqolalari yoki kitoblari bilan har doim sizni chalg'itishadi, chunki ular qandaydir ikkinchi darajali narsalar bilan shug'ullanishdan rohatlanishadi. Buyuk, muhim haqiqatlardan esa kamroq quvonishadi.

Biroq bu yulduz borasida bir narsa aniqki, u o'zicha qila olmaydigan ishni qiladi, ya'ni munajjimlar ta'zim qilishlari uchun ularni Xudo O'g'lining huzuriga boshlab boradi.

Muqaddas Kalom nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, yulduzning bunday harakatga kelishi ortida yagona Zot – Xudoning O'zi turibdi.

Shunday qilib, biz uchun saboq aniq: Musofirlar Masihga sajda qilishlari uchun Xudo ularni yo'naltirdi. Va bunday qilish uchun U global, ehtimol, hatto universal ta'sir va qudrat orqali amalga oshirmoqda.

Luqoning ko'rsatishicha, oddiy bokira qizni Baytlahmga olib kelish haqidagi bashoratni amalga oshirish maqsadida aholini ro'yxatga olish ishlari aniq vaqtda bajarilishi uchun Xudo butun Rim imperiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Matto esa, O'g'ilga sajda qilishlari uchun bir nechta musofirlarni Baytlahmga olib kelish maqsadida Xudo yulduzlarga qanday ta'sir qilganini ko'rsatadi.

Bu Xudoning rejasi. Keyin U O'z rejasini amalga oshirdi. U hozir ham shunday qilmoqda. Xudoning maqsadi xalqlar, aniqrog'i barcha xalqlar (Matto 24:14) O'g'ilga sajda qilishidir.

Siz bilan bir idorada ishlaydigan, bir sinfda o'qiydigan, atrofingizda va xonadoningizda yashaydigan har bir inson uchun Xudoning irodasi mana shu. Yuhanno 4:23 – oyatda aytilganidek, "Ota shu yo'sinda O'ziga sajda qiluvchilarni izlaydi."

Matto Xushxabarining boshida berilgan "borib ko'r" namunasi hanuz mavjud. Biroq Xushxabarning oxirida "boring va ayting" namunasi berilgan. Munajjimlar kelishdi va ko'rishdi. Biz esa borib, aytishimiz kerak.

Ammo O'g'ilga sajda qilishlari uchun barcha xalqlarning to'planishidagi Xudoning maqsadi va qudrati istisno qilinmaydi. Barcha xalqlarning samimiy va chin dildan sajda qilish orqali Masihni ulug'lashi – bu dunyo hamon mavjud ekanining sababidir.

"Biz Unga Ta'zim Qilgani Keldik" nomli maqolasidan olingan

Isoga Nisbatan Ikki Xil Qarshilik

Masihning Kelishi | 9 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Bu gapni eshitib shoh Hirod ham, butun Quddus aholisi ham bezovtalanib qoldi. (Matto 2:3)

Iso Unga sajda qilishni istamaganlarni tashvishga soldi va sajda qiladiganlarga nisbatan qarshilik uyg'otdi. Ehtimol, Mattoning asosiy fikri bu emasdir, biroq voqealar rivojlangani sayin bu yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu hikoyada ikki toifa odamlar Isoga sajda qilishni istamaydilar.

Birinchi toifadagi odamlar Isoga umuman e'tibor bermadilar. Ularning hayotida Iso ahamiyatsiz edi. Iso hayotining boshida namoyon bo'lgan bu guruhga mansub odamlar ulamolar va bosh ruhoniylar ekanligi aytilgan. Matto 2:4 – oyatda shunday yozilgan: "Hirod barcha bosh ruhoniylarni va Tavrot tafsirchilarini to'plab, ulardan: – Masih qayerda tug'ilishi kerak? – deb so'radi." Ular shohga buni aytishdi va shu bilan bo'ldi: ya'ni ular o'zlarining kundalik yumushlariga qaytishdi. Sodir bo'layotgan voqealarni hisobga olganda, din peshvolarining jimligi va befarqligi juda hayratlanarli.

Matto 2:3 – oyatda nima deyilganiga e'tibor bering: "Bu gapni eshitib shoh Hirod ham, butun Quddus aholisi ham bezovtalanib qoldi." Boshqacha aytganda, kimdir "Masih tug'ildi", degan mish-mish tarqaldi. Bosh ruhoniylarning jimligi hayratlanarli: nima uchun ular munajjimlar bilan birga borishmadi? Chunki ularga farqi yo'q edi. Ular Xudoning O'g'lini izlab topishga va Unga sajda qilishga harakat qilishmadi.

Isoga sajda qilishni istamagan ikkinchi toifa odamlar – Isodan qattiq qo'rqqan odamlar edi. Bu hikoyada bunga Hirodni misol qilish mumkin. U juda qo'rqib ketdi. Xullas, u hiyla qildi, yolg'on gapirdi va faqat Isoni o'ldirish uchungina ommaviy qirg'in sodir etdi.

Shunday qilib, bugungi kunda ham Masihga va Unga sajda qiluvchilarga ikki xil qarshilik bo'ladi: befarqlik va dushmanlik. Umid qilamanki, siz bu toifa odamlardan emassiz.

Agar siz imonli bo'lsangiz, kelayotgan Mavlud bayrami Masihga sajda qilish va Unga ergashish nimani anglatishini, qanchalik muhimligini mulohaza qiladigan vaqt bo'lsin.

"Biz Unga Ta'zim Qilgani Keldik" nomli maqolasidan olingan

Oltin, Xushbo'y Tutatqi va Mirra

Masihning Kelishi | 10 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Ularga oldin ko'ringan yulduz yana paydo bo'ldi, munajjimlar rosa xursand bo'ldilar. Yulduz ularga yo'l ko'rsatib bordi va nihoyat, Bola yotgan joy tepasiga kelib to'xtadi. Munajjimlar uyga kirib, Bolani va Uning onasi Maryamni ko'rdilar. Tiz cho'kib, Bolaga ta'zim qildilar. So'ng xazinalar solingan qutichalarini ochib, Unga oltin, xushbo'y tutatqilar va mirrani tortiq qildilar. (Matto 2:10-11)

Xudo insonning qo'liga qarab qolmagan, chunki U hech narsaga muhtoj emas (Havoriylar 17:25). Munajjimlarning hadyasi yordam tariqasida yoki ehtiyojni qondirish uchun berilmagan. Agar musofir sayyohlar shohona in'omlar bilan kelgan bo'lganida, bu narsa shohga nisbatan xurmatsizlik bo'lgan bo'lardi.

Bu in'omlar pora sifatida berilmagan. Qonunlar 10:17 – oyatda Xudo pora olmaydi, deb yozilgan. Xo'sh, unda bu in'omlar nima anglatadi? Ular qanday sajda qilishdi?

O'ziga to'q, hech narsaga muhtojligi yo'q odamlarga in'om berayotgan inson o'sha in'omlar orqali sovg'a qabul qilayotgan insonning qanchalik ajoyib ekanini ko'rsatishni istaydi. Masihga in'om berish qaysidir ma'noda ro'za tutishga o'xshaydi, ya'ni Masih siz voz kechgan narsalardan ham qadrliroq ekanini ko'rsatasiz.

Siz Masihga mana shunday hadya berganingizda, bunday degan bo'lasiz: "Men intilayotgan quvonch (Matto 2:10 – oyatga e'tibor bering! "Ularga oldin ko'ringan yulduz yana paydo bo'ldi, munajjimlar rosa xursand bo'ldilar") – men intilayotgan quvonch – Siz bilan nimadir almashish yoki qandaydir to'lov uchun kelishish orqali boy bo'lish umidi emas. Men Sizning *narsalaringiz* uchun emas, *O'zingiz* uchun keldim. Bu istagim kuchaymoqda va narsalardan emas, balki Sizning O'zingizdan ko'proq shodlanish umidida *narsalar* berish orqali buni ko'rsatyapman. Siz muhtoj bo'lmagan, biroq meni quvontiradigan narsalarni berish orqali jiddiy va qat'iy ohangda "bu narsalar emas, balki Siz mening xazinamsiz", demoqdaman."

Menimcha, oltin, xushbo'y tutatqi hamda mirra hadya qilish yoki Xudo berishimiz mumkin deb o'ylagan har qanday narsalar orqali Xudoga sajda qilishning asl ma'nosi shu bo'lsa kerak.

Xudo bizning qalbimizda Masihga nisbatan tashnalik uyg'otsin va biz chin yurakdan shunday deya olaylik: "Rabbim Iso, Sen – Masihsan, Isroilning Shohisan! Barcha xalqlar Sening huzuringga kelib, oldingda bosh egadi. Senga ta'zim qilishlari uchun Xudo dunyoni boshqaradi. Shuning uchun, qanday qarshiliklarga uchramayin, hokimiyat va kuch-qudratni xursandchilik bilan Senga beraman va "bu narsalar emas, faqat Sen mening qalb istaklarimni qondira olasan", deyish uchun in'omlarimni olib kelaman."

“Biz Unga Ta’zim Qilgani Keldik” nomli maqolasidan olingan

Iso Nima uchun Keldi

Masihning Kelishi | 11 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Bu farzandlar foniyl bandalar bo'lganlari uchun, Iso ham, ular singari, inson bo'ldi. Zero, U O'z o'limi orqaligina o'lim keltiruvchi iblisning qudratini yo'q qila oldi va umr bo'yi o'lim qo'rquviga qul bo'lgan odamzodni ozod qilishga muvaffaq bo'ldi. (Ibroniylar 2:14-15)

Masihning kelishi haqida yozilgan parchalar orasida menga yoqadigani mana shu parcha, deb o'ylayman, chunki Isoning yerdagi hayotining boshi va oxiri – Isoning inson qiyofasiga kirishi va xochga mixlanishi orasidagi bog'liqlikni yaqqol ifodalaydigan boshqa parchani bilmayman. Mana shu ikki oyat Iso yer yuziga nima uchun kelganini, to'g'rirog'i, nima uchun o'lganini yaqqol ko'rsatadi. Imonsiz do'stlaringiz yoki oila a'zolaringizga Mavlud bayrami haqidagi fikringizni sekin-asta ko'rsatishingiz uchun mana shu oyatlardan foydalansangiz yaxshi bo'lardi. Birinchi martasida shunday aytishingiz mumkin:

"Bu farzandlar foniyl bandalar bo'lganlari uchun ..."

"Farzandlar" so'zi avvalgi oyatlardan olingan bo'lib, Masihning, ya'ni Qutqaruvchining ruhiy avlodlarini bildiradi (Ishayo 8:18; 53:10). Ular yana "Xudoning farzandlari" hamdir (Yuhanno 1:12). Boshqacha aytganda, Masihni yer yuziga yuborganida, Xudo O'z "farzandlariga" najot berishni nazarda tutgan.

To'g'ri, "Xudo olamni shunchalik sevdiki, O'zining yagona O'g'lini (Isoni) berdi" (Yuhanno 3:16). Biroq Xudo *ayniqsa*, "Xudoning tarqoq bo'lgan hamma farzandlarini" to'playotgani ham haqiqat (Yuhanno 11:52). Xudoning rejasi Masihni bu olamga *yuborish* va O'z "farzandlarini" najotga *erishtirish* edi (1-Timo'tiy 4:10 ga qarang). Masihni qabul qilish orqali siz ham farzandlikka qabul qilinishingiz mumkin (Yuhanno 1:12).

"... Iso ham, ular singari, inson bo'ldi ..."

Bu esa Iso inson qiyofasini olishidan avval ham mavjud bo'lganini bildiradi. U Ruh edi. U abadiy Kalom edi. U Xudo bilan birgan edi va Xudo edi (Yuhanno 1:1; Kolosaliklar 2:9). Biroq U tana va qondan iborat inson bo'ldi va O'z ilohiyligini insoniylik bilan qopladi. U to'la-to'kis inson bo'ldi va to'la-to'kis Xudoligicha qoldi. Ko'p jihatdan bu buyuk sinoatdir. Ammo u imonimizning asosi bo'lib, Kalom bizga shuni o'rgatadi.

"... U O'z o'limi orqaligina ..."

U inson qiyofasini olishining sababi – o'lish edi. Xudo pok va muqaddas bo'lgani sababli gunohkorlar uchun o'lishi mumkin emasdi. Lekin inson sifatida o'lishi mumkin edi. Uning maqsadi o'lish edi. Shuning uchun U inson bo'lib tug'ilishi lozim edi. U o'lish uchun tug'ilgandi. Buyuk Juma – Mavlud bayramining maqsadi. Mavlud bayrami haqida bugungi kunda ko'plab insonlar eshitishi lozim bo'lgan narsa mana shu.

"... o'lim keltiruvchi iblisning qudratini yo'q qila oldi ..."

O'lim orqali Masih iblisning qudratini yo'q qildi. Qanday? Barcha gunohlarni O'ziga olish orqali. Bu shuni anglatadiki, bizni Xudoning oldida ayblash uchun endi shaytonning hech qanday asosi yo'q. "Xudoning tanlaganlarini kim ayblay olardi?! Xudoning O'zi ularni oqlaydi-ku!" (Rimliklar 8:33). Nima asosida Xudo bizni oqlaydi? Isoning qoni orqali (Rimliklar 5:9).

Shaytonning bizga qarshi eng katta quroli – bizning gunohlarimizdir. Agar Isoning o'limi gunohlarimizni yuvgan bo'lsa, iblisning eng katta quroli, ya'ni o'lim keltiruvchi yagona quroli uning qo'lidan tortib olingan. U endi bizga o'lim jazosini talab qila olmaydi, chunki Hakamning O'zi bizni O'z O'g'lining o'limi orqali oqladi!

"... va umr bo'yi o'lim qo'rquviga qul bo'lgan odamzodni ozod qilishga muvaffaq bo'ldi..."

Shunday qilib, biz o'lim qo'rquvidan ozodmiz. Xudoning O'zi bizni oqlagan. Shayton bu farmonni bekor qila olmaydi. Xudo bizning *mutlaq* xavfsizligimiz hayotimizga *darhol* ta'sir ko'rsatishini istaydi. U yana baxtli yakun bugungi kundagi qullik va qo'rquvni bartaraf qilishini xohlaydi.

Agar biz so'nggi, eng katta dushmanimiz bo'lgan o'limdan qo'rqishimizga hojat qolmagan bo'lsa, demak, hech narsadan qo'rqishimiz kerak emas. Biz ozod bo'lishimiz mumkin. Xursand bo'lish erkin bo'lishimiz, boshqa narsalardan ozod bo'lishimiz mumkin.

Mavlud bayrami uchun Xudo bizga bergan naqadar ajoyib sovg'a bu! Va albatta, dunyo uchun bizning ham hadyamiz!

"Ozodlik uchun O'lish Maqsadida Tug'ilgan" nomli maqolasidan olingan

12-DEKABR

Soyalarni Almashtirish

Masihning Kelishi | 12 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Aytgan gaplarimizning mag'zi quyidagicha: bizning shunday Oliy ruhoniymiz borki, U samoda, Ulug'vor Xudo taxtining o'ng tomonida o'tiribdi. U samodagi haqiqiy Chodirning Eng muqaddas xonasida xizmat qilyapti. Bu Chodirni inson emas, balki Egamizning O'zi qurgan. (Ibroniylar 8:1-2)

Ibroniylarga yozilgan maktubning mohiyati shundan iboratki, Xudoning O'g'li Iso Masih nafaqat yerga xos eng yaxshi va so'nggi insoniy ruhoniylar sifatida xizmat qilish uchun dunyoga kelgan, balki bu tizimni ado etish va nihoyasiga yetkazish hamda bizning so'nggi Qurbonligimiz sifatida avval Go'lgotada keyin esa oxirgi Ruhoniymiz sifatida samoda xizmat qilish orqali butun diqqatimizni O'ziga qaratish uchun kelgan.

Eski Ahd davridagi chodir, ruhoniylar va qurbonliklar asl Chodir, Ruhoniy va Qurbonlikning soyasi edi xolos. Mana endi asl Chodir, Ruhoniy va Qurbonlik yerga keldi, soyalar esa yo'q bo'ldi.

Mana, Masihning kelish haqida bolalar uchun, qachonlardir bola bo'lgan va bolaligini eslaydigan kattalar uchun mo'ljallangan manzara. Aytaylik, oziq-oqvat do'konida onangizni yo'qotib qo'ydingiz. Qo'rquvdan sarosimaga tusha boshladingiz va qaysi tomongan yurishni bilmayapsiz. Yo'lakning oxiriga yugurib bordingiz, endi yig'lamoqchi bo'lib turganingizda, yo'lakning oxirida onangizning qiyofasiga o'xshash soyani ko'rib qoldingiz. Bu narsa sizda umid uyg'otadi. Qay biri yaxshi? Soyani ko'rish umidimi yoki burchakdan chiqib kelayotgan onangizni ko'rishmi?

Iso bizning Oliy ruhoniymiz bo'lganida xuddi shunday bo'ladi. Mavlud bayramining ma'nosi shu. Mavlud bayrami – soylarning asli bilan o'rin almashishidir: yo'lakning oxiridagi burchakdan Ona chiqib keladi va bolakay yengil tortib, xursand bo'ladi.

“Bizning Oliy Ruhoniymiz Xudoning O'g'li Bo'lib, U To Abad Mukammaldir” nomli maqolasidan olingan

So'nggi Haqiqat Shu Yerda

Masihning Kelishi | 13 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Aytgan gaplarimizning mag'zi quyidagicha: bizning shunday Oliy ruhoniyimiz borki, U samoda, Ulug'vor Xudo taxtining o'ng tomonida o'tiribdi. U samodagi haqiqiy Chodirning Eng muqaddas xonasida xizmat qilyapti. Bu Chodirni inson emas, balki Egamizning O'zi qurgan... Ular yer yuzidagi Muqaddas chodirda xizmat qiladilar. Bu Chodir bor-yo'g'i samodagi haqiqiy Chodirning nusxasi va soyasidir. Negaki, Xudo Musoga Chodir qurishni buyurganda, unga shunday degandi: "Ehtiyot bo'l, hamma narsani Men senga tog'da ko'rsatgan namunaga muvofiq yasat." (Ibroniylar 8:1-2, 5)

Buni avval ham ko'rganmiz. Lekin bundan ham ko'prog'i bor. Mavlud – soylarni haqiqiysi bilan almashtirishdir.

Ibroniylar 8:1-2 – oyatlar o'ziga xos qisqacha xulosadir. Gap shundaki, biz bilan Xudoning o'rtasida turadigan, bizni Xudoga olib boradigan va biz uchun Xudoga iltijo qiladigan ruhoniy – Eski Ahd davridagi kabi oddiy, zaif, gunohkor va o'tkinchi ruhoniy emas. U Xudoning O'g'li bo'lib, qudratli, begunoh hamda abadiy hayotga ega.

Qolaversa, eskirganida kuya yeydigan, suvda ivib ketadigan, yonib ketadigan, yirtiladigan va bosqinchilar o'g'irlab ketadigan o'tkinchi, joyi va o'lchami cheklangan chodirda xizmat qilmaypti. Yo'q, Ibroniylar 8:1-2 – oyatlarda aytilishicha, Masih "inson qo'li bilan emas, balki Egamizning O'zi qurgan Chodirda" xizmat qilyapti. Bu Chodir soya emas. Bu Chodir samodagi haqiqiy Chodirdir. Nusxasini yasashi uchun Sinay tog'ida Musoga ko'rsatilgan soyaning haqiqiysi mana shu Chodirdir.

Ibroniylar 8:1 – oyatga ko'ra, haqiqiy Chodirning O'z soyasidan afzal tomoni shuki, bizning Oliy ruhoniyimiz samoda Qodir Xudoning o'ng tomonida o'tiribdi. Eski Ahd davridagi ruhoniylarning birontasi haqida bunday aytoilmaymiz.

Iso Ota Xudo bilan bevosita munosabatda. U Xudoning yonida sharafli o'ringa ega. Xudo Uni to abad sevadi va hurmat qiladi. U har doim Xudo bilan birga. Bu pardalar, idishlar, stollar, shamlar, to'nlar, ridolar, qo'ylar, echkilar va kaptarlar kabi soya emas. Bu so'ngi va yakuniy haqiqat: Xudo va Uning O'g'li bizning abadiy najotimiz uchun sevgi va muqaddaslikda o'zaro aloqada.

Eng katta haqiqat shuki, ilohiy Shaxslar O'zaro aloqada bo'lib, O'zlarining ulug'vorligi, muqaddasligi, sevgisi, adolati, mehr-shafqati va haqiqati najotga erishgan insonlarda namoyon bo'lishi uchun birgalikda harakat qilishadi.

"Bizning Oliy Ruhoniyimiz Xudoning O'g'li Bo'lib, U To Abad Mukammaldir" nomli maqolasidan olingan

O'z Xalqi uchun buni Haqiqatga Aylantiradi

Masihning Kelishi | 14 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Ammo Isoga berilgan ruhoniyluk xizmati boshqa ruhoniylarnikiga qaraganda buyukdir. Chunki Uning vositasida tuzilgan yangi ahd avvalgi ahddan ulug'roq va a'loroq va'dalarga asoslangan. (Ibroniylar 8:6)

Ibroniylar 8:6 – oyatga ko'ra, Masih – yangi ahdning Vositachisi. Bu nimani anglatadi? Buning ma'nosi shuki, Uning qoni – ahd qoni bo'lib (Luqo 22:20; Ibroniylar 13:20), bu ahd Uning qoni evaziga kuchga kirdi va Xudoning biz uchun bergan va'dalarini amalga oshirishini ta'minladi.

Bu shuni anglatadiki, yangi ahd va'dalariga binoan, Masihning Ruhi orqali Xudo bizning ichki dunyomizni o'zgartiradi.

Qolaversa, Xudo bizdagi bu o'zgarishlarni imon orqali, ya'ni Masih qiyofasidagi Xudo biz uchun hamma narsa ekaniga ishonishimiz orqali amalga oshirishini bildiradi.

Yangi Ahd Masihning qoni orqali sotib olindi, Masihning Ruhi orqali amalga oshirildi va Masihga bo'lgan imon orqali o'zlashtirildi.

Masihning Yangi Ahd Vositachisi sifatida amal qilayotganini yaqqol ifoda etadigan joy – Ibroniylar 13:20-21 oyatlar:

Tinchlik beradigan Xudo Rabbimiz Isoni o'likdan tiriltirdi. Iso O'z qoni bilan abadiy ahdni muhrlagani uchun, Xudo Uni O'z xalqining ulug' Cho'poni qilib tayinladi. Shu qadar buyuk ishlarni qilgan Xudoning xohish-irodasini bajara olishingiz uchun, U sizlarga har qanday ezgu fazilat va in'om bersin. U O'zining manzur murod-maqsadini Iso Masih orqali sizlarda bajo keltirsin. Iso Masihga abadolabad shon-sharaflar bo'lsin! Omin.

“Xudoning xohish-irodasini bajara olishingiz uchun” so'zlari Yangi Ahdga ko'ra, Xudo O'z qonunlarini yuraklarimizga yozganida nima bo'lishini tasvirlaydi. “Iso Masih orqali”, iborasi esa ushbu ulug'vor inoyatning sharaflari Isoning Vositachi ekanini ifodalaydi.

Shunday qilib, Mavlud bayramining ma'nosi – nafaqat Xudo soylarni Haqiqat bilan almashtirishini, balki bu Haqiqatni O'z xalqi uchun chingga aylantirishini bildiradi. U bu haqiqatni bizning yuraklarimizga yozadi. Lo'nda qilib aytganda, siz o'z kuchingiz bilan olishingiz uchun U O'zining Mavlud hadyasini archaning pastiga qo'y olmaydi. Xudo bu hadyani O'zi ko'tarib, uni yuragingizga va ongingizga yozib qo'yadi hamda siz Xudoning farzandi ekaningizga ishonch hosil qilishingiz uchun muhrlab qo'yadi.

“Iso: Yaxshiroq Ahdning Vositachisi, 1 - Qism” nomli maqolasidan olingan

Mavluddagi Hayot va O'lim

Masihning Kelishi | 15 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

O'g'ri faqat o'g'irlash, bo'g'izlash, barbod qilish uchun keladi. Men esa ularga hayot, farovon hayot berish uchun kelganman. (Yuhanno 10:10)

Ushbu maqolani yozish arafasida turganimda, menga Marion Nyustrum vafot etgani haqida xabar keldi. O'sha vaqtda jamoatimiz a'zolari orasida Marion va uning eri Elmer jamoatning eng uzoq yillik a'zolari edilar. Uning yoshi 87 da edi. Ular 64 yil birgalikda hayot kechirishdi.

Men Elmer bilan gaplashib, Rabbimizga bo'lgan imonda mustahkam bo'lishini va taslim bo'lmasligini xohlashimni aytganimda, u menga shunday javob berdi: "U haqiqiy do'st edi." Har bir masihiy inson hayotining so'nggi damlarida "Masih haqiqiy do'st edi", deya olishlari uchun duo qilaman.

Har Mavlud bayramida onamning vafot etganini xotirlayman. U 56 yoshda Isroilda avtobus halokati tufayli vafot etgan. O'shanda 1974 yilning 16-dekabr kuni edi. O'sha hodisalar hozirgi kunda ham men uchun dolzarbligini yo'qotmagan. Agar hissiyotlarga berilsam, masalan, farzandlarim uni bilmasligini o'ylasam, osonlikcha ko'zlarimga yosh keladi. Biz uni Mavlud bayramining ertasi kuni dafn qilganmiz. Nihoyatda qimmatli Mavlud bo'lgandi!

Ko'pchiligingiz kelayotgan Mavlud bayramida avvalgilariga qaraganda ko'proq yo'qotishlarni his qilasz. Bunday hislar paydo bo'lishiga to'sqinlik qilmang. Ularga yo'l bering. Uni his qiling. Hayotda ham, o'limda ham mehrimizni kuchaytirmasak, unda sevgining nima keragi bor? Ammo achchiqlanmang. Achchiqlanish - o'z-o'zini barbod qilish demakdir.

Biz abadiy hayotga ega bo'lishimiz uchun Masih bu dunyoga kelgan. "Men esa ularga hayot, farovon hayot berish uchun kelganman" (Yuhanno 10:10). Marion va Elmer hayotlarining so'nggi damlarini qanday o'tkazish haqida kelishib olishgandi. "Marion ikkimiz bizning so'nggi makonimiz Rabbimiz bilan birga bo'lishi haqida kelishib oldik", degandi Elmer.

Uyingizni sog'inib, bezovta bo'lyapsizmi? Mening oilam ta'tilda uyga kelishadi. Bu yaxshi. Menimcha, buning yaxshi ekanining asosiy sababi shundaki, ular ham, men ham vaqti kelib Abadiy Uyimizga qaytish hissi qanday bo'lishini oldindan his qilib ko'ramiz. Aslida bu tuyg'u bizning tabiatimizga azaldan kiritilgan. Bu yoqimli hislarning hammasi Asosiy Uyimizga qaytishdan oldingi kichik yoqimli hislar xolos. Biz oldindan his qiladigan bu hislar ham yoqimli.

Faqat ular haqiqiylarining o'rnini egallab olmasa bo'ldi. Bu mavsumning barcha shirin narsalari yakuniy, eng yaxshi va mukammal Lazzatning o'rnini egallab olishiga yo'l qo'ymang. Har qanday yo'qotishlar ham, har qanday xursandchiliklar ham qalbingizni samoga yo'naltirsin.

Mavlud. "Men ularga hayot berish uchun kelganman." Bundan boshqa yana qanday sabab bo'lishi mumkin? Marion Nyustrum, Rut Payper, siz bilan men, xullas, barchamiz hozir va to abad Hayotga ega bo'lishimiz uchun.

Kelayotgan Mavlud bayramida *Abadiyat* bulog'idan ichish orqali *Hoziringizni* yanada boyroq va chuqurroq qiling. Bunga juda kam vaqt qoldi.

"Mavluddagi Hayot va O'lim" nomli maqolasidan olingan

16-DEKABR

Xudoning Eng Muvaffaqiyatli Chekinishi

Masihning Kelishi | 16 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Shuning uchun Xudo Uni eng yuqoriga yuksaltirdi va Unga har qanday ismdan yuqori ismni ato etdi. Toki Isoning oldida yeru osmondagi va yer ostidagi borliq jon tiz cho'ksin, har bir til Iso Masihni Rabbiiy deb tan olib, Otamiz Xudoga sharaf keltirsin. (Filippiliklar 2:9-11)

Mavlud (Masihning tug'ilishi) Xudoning eng muvaffaqiyatli chekinishining boshlanishi edi. U har doim O'z kuchini yaqqol mag'lubiyat orqali namoyon qilishdan xursand bo'lardi. U strategik g'alabaga erishish uchun taktik chekinishlar qiladi.

Eski Ahd davrida Yoqubning o'n ikkita o'g'illaridan biri Yusufga uning shon-shuhrat va ulug'likka erishishi tushida va'da qilingandi (Ibtido 37:5-11). Biroq ana shu g'alabaga erishish uchun u Misrda qul bo'lishiga to'g'ri keldi. Bu ham yetmagandek, halolligi tufayli ahvoli sal yaxshilangan paytda, quldan ham battar ahvolga tushdi, ya'ni uni zindonga tashlashdi. Lekin bularning bari rejalashtirilgan edi. Unga yaxshi bo'lishi uchun, oilasiga yaxshi bo'lishi uchun, hatto butun olamga yaxshi bo'lishi uchun Xudo shunday reja qilgandi! Yusuf zindonda Fir'avning soqiysi bilan tanishib qoladi. Keyinchalik soqiy uni Fir'avning huzuriga olib boradi, Fir'avn esa uni Misr ustidan hokim etib tayinlaydi. Nihoyat, uning tushlari o'ngidan keladi. Akalari unga ta'zim qilishadi, Yusuf esa ularni ocharchilikdan qutqaradi. Shon-shuhratga eltuvchi naqadar yoqimsiz yo'li!

Biroq bu Xudoning tanlagan yo'li, hatto O'z O'g'li uchun ham. U O'z ulug'vorligidan kechdi va qul qiyofasiga kirdi. Quldan ham battar ahvolga tushdi, ya'ni hibsga olindi va qatl qilindi. Ammo xuddi Yusuf kabi, U ham solihligini saqladi. "Shuning uchun Xudo Uni eng yuqoriga yuksaltirdi va Unga har qanday ismdan yuqori ismni ato etdi. Toki Isoning oldida yeru osmondagi va yer ostidagi borliq jon tiz cho'ksin" (Filippiliklar 2:9-10).

Xudo biz uchun ham xuddi shu yo'lni tanlagan. Agar biz Rimliklar 8:17 – oyatda aytilganidek, U bilan birga azob cheksak, bizga ham ulug'vorlik va'da qilingan. Yuqoriga olib boradigan yo'l pastdan boshlanadi. Oldinga olib boradigan yo'l orqadan boshlanadi. Muvaffaqiyatga eltadigan yo'l esa belgilangan ilohiy chekinish orqali bo'ladi. Bu yo'l har doim xuddi omadsizlikdek ko'rinadi.

Ammo Yusuf va Iso bu Mavludda bizga nimadir o'rgatadigan bo'lsa, u mana bu bo'ladi: Shayton hamda gunohkor insonlar yomonlik qilmoqchi bo'lishsa, "Xudo uni yaxshilikka aylantiradi!" (Ibtido 50:20).

Siz, hadiksiragan azizlar, dalda olasiz

Sizni cho'chitgan bulutlar

buyuk shafqat va baraka bo'lib,

boshingizga yog'adi.

“Yusuf va Iso: Xudoning Muvaffaqiyatli Chekinishi” nomli maqolasidan olingan

17-DEKABR

Faqat Orzu Qilish Mumkin Bo'lgan Buyuk Najot

Masihning Kelishi | 17 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

*Egamiz demoqda: "Shunday kunlar keladiki, Men Isroil va Yahudo xalqlari bilan yangi ahd tuzaman."
(Yeremiyo 31:31)*

Xudo adolatli va muqaddas bo'lib, biz gunohkorlar Undan uzoqdamiz. Mana shu narsa bizning Mavluddagi va yilning boshqa hamma vaqtlaridagi asosiy muammomiz. Qanday qilib, biz adolatli va muqaddas Xudo bilan yarashishimiz mumkin?

Shunga qaramay, Xudo rahmdil bo'lib, Yeremiyo 31 – bobda (Masih tug'ilishidan besh yuz yil avval) bir kun kelib, nimadir qilishi haqida va'da bergan. U Masihning soylari bo'lgan narsalarni Haqiqiyi bilan almashtirishni, Uni sevish, Unga ishonish va Unga ergashish uchun biz chetdan emas, balki ich-ichimizdan boshqarilishimiz uchun U hayotimizga qudrat bilan kirib kelishini va O'z irodasini qalblarimizga yozishini aytgan.

Biz bahramand bo'lishimiz uchun Xudo borliqdagi eng buyuk Haqiqatni bizga taklif qilsa, keyin bu Haqiqatdan yanada erkinroq bahramand bo'ladigan va yanada ko'proq huzur oladigan darajada Uni anglab yetishimiz uchun bizga turtki bersa, bu najot faqat orzu qilish mumkin bo'lgan buyuk najot bo'lar edi. Va bu narsa u haqda qo'shiq kuylashga arzigulik Mavlud uchun hadya bo'lgan bo'lardi.

Aslida, Yangi Ahdda Xudo va'da qilgan narsa shu. Biroq juda katta to'siq bor edi. Bizning gunohimiz. Qonunsizliklarimiz sababli biz Xudodan ajralib qolganmiz.

Qanday qilib muqaddas va adolatli bo'lgan Xudo biz katta xursandchilik bilan bahramand bo'lishimiz uchun borliqdagi eng buyuk Haqiqatni (O'z O'g'lini) qurbon qiladigan darajada bizdek gunohkorlarga mehribonlik ko'rsatishi mumkin?

Buning javobi shuki, Xudo bizning gunohlarimizni O'z O'g'liga yukladi va gunohlarimizni unutish va bizga mehrlil munosabatda bo'lish uchun ularni hukm qilish bilan birga adolatligicha va muqaddasligicha qoldi. Ibroniylar 9:28 – oyatda aytilishicha, Masih "ko'plarning gunohlarini O'z bo'yniga olish uchun bir marta qurbon bo'lib, o'ldi."

Masih xochda qurbon bo'lganida, bizning gunohlarimizni O'z bo'yniga olgan (1-Butrus 2:24). Bizga atalgan hukmni U O'ziga oldi (Rimliklar 8:3). U ayblarimizni bekor qildi (Rimliklar 8:1). Bu esa bizning gunohlarimiz kechirilganini bildiradi (Havoriylar 10:43). Bizni hukm qilish uchun asos sifatida Xudoning

esida qolmaydi. Ya'ni, Xudo ularni "esga olmaydi" (Yeremiyo 31:34). Ular Masihning o'limi orqali yo'q bo'lib ketadi.

Bu shuni anglatadiki, endi Xudo O'z adolati bo'yicha bizga Yangi Ahdning til bilan ifoda qilib bo'lmas va'dalarini sahovat ila bera oladi. Biz bahramand bo'lishimiz uchun U bizga Masihni, borliqning eng buyuk Haqiqatini beradi. Biz erkinlik va shodlik bilan Masihni sevishimiz, Unga ishonishimiz va ich-ichimizdan Unga ergashishimiz uchun Xudo bizning qalbimizga O'z xohish-irodasini yozib qo'yadi.

"Iso: Yaxshiroq Ahdning Vositachisi, 2 - Qism" nomli maqolasidan olingan

18-DEKABR

Elchilik Xizmatlari uchun Mavlud Namunasi

Masihning Kelishi | 18 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Sen Meni dunyoga yuborganingday, Men ham ularni dunyoga yubordim. (Yuhanno 17:18)

Mavlud – elchilik xizmatlari uchun namunadir. Xizmatlar (Missiyalar) – Mavludning ko'zgusi. Men kabi, siz ham.

Misol uchun, xavf-xatarni olaylik. Masih o'zinikilarni oldiga keldi, lekin ular Masihni qabul qilishmadi. Sizni ham qabul qilishmaydi. Ular Masihga qarshi fitna qilishdi. Sizga ham shunday qilishadi. Masihning doimiy yashash joyi yo'q edi. Sizning ham bu dunyoda muqim yashamaysiz. Ular Masihni nohaq ayblashdi. Sizni ham ayblashadi. Ular Masihni qamchilab, mas'hara qilishdi. Sizni ham shunday qilishadi. U uch yil xizmat qilganidan keyin qurbon bo'ldi. Siz bilan ham shunday bo'lishi mumkin.

Lekin bu xatarlardan ham xavfliroq xatarlar mavjud, Iso bunga yo'l qo'ymadi. Siz ham bu xatarni chetlab o'ta olasiz!! 16-asrning o'rtalarida missioner Fransis Xavier (1506–1552) Malakalik (hozirgi Malayziyaning bir qismi) Perez Otaga Xitoydagi missiyasi duch kelgan xavf-xatarlar haqida yozgan. U shunday degan:

“Barcha xavf-xatarlar ichida eng dahshatlisi – Xudoning rahm-shafqatiga nisbatan ishonchni yo'qotishdir... Xudoga ishonmaslik – Xudoning barcha dushmanlari bizga zarar berish uchun qilgan har qanday jismoniy yovuzliklaridan ham dahshatliroqdir, chunki Xudoning ruhsatisiz iblislar ham, ularning insoniy xizmatchilari ham bizga zarracha ziyon yetkaza olmagan bo'lardilar.”

Missionerlar duch keladigan eng katta xavf – o'lim emas, balki Xudoning mehr-shafqatiga ishonmaslikdir. Agar bu xatar bartaraf qilinsa, boshqa har qanday xatarlar o'z kuchini yo'qotadi.

Oxir-oqibat, Xudo har bitta hanjarni qo'limizdagi tayoqqa aylantiradi. J. U. Aleksandr aytganidek: “Hozirgi mehnatning har bir lahzasi million asrlik shon-shuhrat bilan taqdirlanadi.”

Masih bunday xatardan – Xudoga ishonmaslik xavfidan holi edi. Shuning uchun Xudo Uni nihoyatda yuksaltirdi! Uni yuksaltirganidek, sizni ham yuksaltiradi. U kabi sizni ham.

Mavlud - missiyalar uchun namuna bo'lganini yodda tuting. *Men kabi, siz ham.* Bu missiya xatarni bildiradi. Eng katta xatar esa, – Xudoning mehr-shafqatiga ishonmaslik. Bunga yo'l qo'ysangiz, hammasi tamom. Shu yerda g'alabaga erishing, shunda million asrlar davomida sizga hech narsa zarar yetkaza olmaydi.

“Xatarli Missiya” nomli maqolasidan olingan

Mavlud - Ozodlik Uchun

Masihning Kelishi | 19 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Bu farzandlar foniyl bandalar bo'lganlari uchun, Iso ham, ular singari, inson bo'ldi. Zero, U O'z o'limi orqaligina o'lim keltiruvchi iblisning qudratini yo'q qila oldi va umr bo'yi o'lim qo'rquviga qul bo'lgan odamzodni ozod qilishga muvaffaq bo'ldi. (Ibroniylar 2:14-15)

Iso inson bo'ldi, chunki oddiy insondan a'loroq insonning o'limi kerak edi. Inson qiyofasiga kirish – Xudoning O'z-O'zini o'lim jazosiga hukm qilishi edi.

Masih o'limga tavakkal qilmadi. U aynan o'limni tanladi. U o'limni qabul qildi. U yer yuziga aynan shu maqsadda kelgan, ya'ni "O'ziga xizmat qildirish uchun emas, balki O'zi boshqalarga xizmat qilish va O'z jonini fido qilib, ko'plarni ozod qilish uchun kelgan" (Mark 10:45).

Shayton sahroda (Matto 4:1-11) va Butrus orqali (Matto 16:21-23) Isoni xochda qurbon bo'lishdan qaytarishga uringanini hayron qoladigan joyi yo'q! Xoch shaytonning barbod bo'lishi edi. Iso uni qanday barbod qildi?

Ibroniylar 2:14 – oyatda aytilishicha, shayton "o'lim keltiruvchi qudratga" ega. Ya'ni, shayton odamlarni o'lim qo'rquviga sola oladi. "O'lim keltiruvchi qudrat" shunday qudratki, u o'lim qo'rquvi orqali insonlarni qullikda ushlab turadi. O'lim dahshatli narsaga aylanishi uchun u odamlarni gunoh ichida tutib turadigan qudrat hisoblanadi.

Lekin Iso shaytonni bu qudratdan mahrum qildi. Iso uni qurolsizlantirdi. Biz shaytonning hukmiga qarshi tura olishimiz uchun U bizni solihlik sovuti bilan ta'minladi. U buni qanday qildi?

O'z o'limi orqali Iso barcha gunohlarimizni yuvdi. Begunoh insonni shayton hukm qila olmaydi. Kechirilish orqali biz nihoyat ozod bo'ldik. Shaytonning rejasi Xudoning hukm kunida Xudoga ergashganlarni hukm qilish orqali Xudoning boshqaruvini yo'q qilish edi. Lekin Masih tufayli endi mahkumlik yo'q. Shaytonning hiyonati barbod bo'ldi. Uning ulkan hiyonatiga chek qo'yildi. "U bizga g'azabini sochishi mumkin, chunki uning taqdiri hal bo'lgan." Xoch tufayli u jarohatlandi. Tez orada u bartaraf qilinadi.

Mavlud – ozodlik uchun. O'lim qo'rquidan ozod bo'lishdir.

Bizning o'rnimizga Quddusda o'lish uchun, hozirda o'z shahrimizda qo'rqusiz yashashimiz uchun Iso Baytlahmda bizning tabiatimizni oldi. Ha, qo'rquv nimaligini bilmay yashashimiz uchun. Chunki agar xursandchiligimga to'sqinlik qiladigan eng katta to'siq olib tashlangan bo'lsa, nima uchun men arzimast to'siqlardan cho'chishim kerak? Qanday qilib (rostdan ham!): "Men o'limdan qo'rqmayman, lekin ishimni yo'qotishdan qo'rqaman", deb aytishingiz mumkin? Yo'q. Yo'q. Yaxshilab o'ylab ko'ring!

Agar o'lim (o'lim, deb aytyapman – yurak urmaydi, tana soviydi, nafas to'xtaydi), agar o'lim endi bizni qo'rquvga solmasa, demak biz chindan ham ozod bo'lganmiz. Masih uchun, sevgi uchun har qanday xatarga tayyormiz. Endi tashvishga qul emasmiz.

Agar O'g'il sizni ozod qilgan bo'lsa, siz chindan ham ozod bo'lishingiz lozim!

“Masihning Tug'ilishi va Go'lgota Tufayli Ozod Qilingan” nomli maqolasidan olingan

20-DEKABR

Mavlud Birdamligi

Masihning Kelishi | 20 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Xudoning O'g'li iblisning ishlarini barbod qilish uchun keldi. (1-Yuhanno 3:8)

Shaytonning korxonasi har kuni millionlab gunohlarni to'playdi. U esa bu gunohlarni yuk tashuvchi ulkan samolyotga ortib, samoga uchadi va ularni Xudoning oldiga tashlab, kuladi.

Ba'zi odamlar bu korxonada doimiy ishlashadi. Ayrimlar esa bu korxonadan ishdan ketishgan va goh-gohida qaytib turishadi.

Korxonadagi ishlarining har daqiqasi Xudoni shayton uchun mas'haraga aylantiradi. Gunoh – shaytonning ishi, chunki u Xudoning nuri, go'zalligi, pokligi va ulug'vorligidan nafratlanadi. Hech narsa uni yaratilgan mavjudotning o'z Yaratuvchisiga ishonmasligi hamda Unga itoat qilmasligidek xursand qila olmaydi.

Shunday qilib, Mavlud – insonlar uchun ham, Xudo uchun ham yaxshi xabar.

“Iso Masih gunohkorlarni qutqarish uchun dunyoga keldi’ degan gap to'g'ri va asoslidir, har jihatdan qabul qilinishga loyiqdir” (1-Timo'tiy 1:15). Bu biz uchun xushxabardir. “Xudoning O'g'li iblisning ishlarini barbod qilish uchun keldi” (1-Yuhanno 3:8). Bu ham Xudo uchun yaxshi xabar.

Mavlud – Xudo uchun yaxshi xabar, chunki Iso shaytonning korxonasiga qarshi kurashga boshchilik qilish uchun keldi. U korxonaga to'g'ri kirib borib, sadoqatlilarni Birdamlikka chaqirdi va katta jangni boshladi.

Mavlud – gunohlarni yig'ish korxonasida qo'zg'olon qilishga da'vatdir. Rahbariyat bilan hech qanday kelishuv bo'lmaydi. Oldi-berdi qilinmaydi. Shunchaki, bir maqsad bilan mahsulotga nisbatan qat'iy qarshilik qilinadi. Biz endi gunohlarni to'plashda qatnashmaymiz.

Mavlud Birdamligining maqsadi yuk tashuvchi samolyotni yakson qilishdir. U kuch ishlatmaydi yoki zo'ravonlik qilmaydi, shunchaki Haqiqatga bo'lgan qat'iy sadoqat bilan iblisning inson hayotini barbod qiluvchi konveyrini yo'q qilishga yo'l ochadi.

Shaytonning konveyri to'liq yopilmagunicha Mavlud Birdamligi harakatdan to'xtamaydi.

Gunoh bartaraf qilinganida, Xudoning nomi to'liq oqlanadi. O'shanda hech kim kulmaydi.

Agar kelayotgan Mavlud bayramida Xudoga in'om bermoqchi bo'lsangiz, shaytonning gunohlarni yig'uvchi konveyrida ishlashni tashlang va hech qachon u yerga qaytmang. Mehr-muhabbat namoyishlarida o'z o'rningizni toping. Xudoning ulug'vor nomi oqlanmagunicha va U solihlar orasida O'z ulug'vorligi bilan turmaguncha Mavlud Birdamligiga qo'shiling.

“Mavlud Birdamligi” nomli maqolasidan olingan

Azaliy Nuroniy Tug'ilishi

Masihning Kelishi | 21 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

– Demak, Sen Shoh ekansan-da?! – dedi Pilat. – Shoh ekanimni o'zingiz aytdingiz, – dedi Iso. – Men haqiqat to'g'risida shohidlik qilmoq uchun tug'ilganman, ana shu maqsadda olamga keldim. Haqiqat tarafida bo'lgan har bir odam Menga quloq soladi. (Yuhanno 18:37)

Bu so'zlar Isoning yer yuzidagi hayotining boshida emas, balki oxirida paydo bo'lgan bo'lsa ham u ulug' Mavlud haqidagi ajoyib matn hisoblanadi.

E'tibor bering: Iso nafaqat tug'ilganini, balki "olamga kelganini" aytmoqda. Uning tug'ilishining o'ziga xos tomoni shundaki, U tug'ilish orqali paydo bo'lmadi. U og'ilxonada tug'ilishidan avval ham mavjud edi. Nosiralik Isoning shaxsiyati, tabiati Iso Nosirada inson bo'lib tug'ilishidan oldin ham mavjud edi.

Bu sirni ta'riflash uchun mos teologik so'z – *yaratilgan mavjudod* emas, balki *inson qiyofasiga kirishdir*. Isoning tanasi emas, balki shaxsi, ya'ni muhim shaxsiyati U inson bo'lib tug'ilmasidan avval ham mavjud edi. Isoning tug'ilishi yangi insonning yo'qdan bor bo'lishi emas, balki azaldan bor bo'lgan insonning bu olamga kelishi edi.

Iso tug'ilishidan 700 yil oldin, Mixo 5:2 buni quyidagicha ta'riflaydi:

"Ey Efratdagi Baytlahm, sen Yahudoning mitti shahri bo'lsang ham, Isroilni Men uchun boshqaradigan zot sendan chiqadi. Uning nasabi qadimlarga borib taqaladi."

Isoning tug'ilish siri faqat Uning bokira qizdan tug'ilganidan iborat emas. Bu mo'jiza yanada kattaroq mo'jizaga guvohlik berish uchun, aniqroq aytadigan bo'lsak, Mavlud kuni tug'ilgan Bola – "nasabi qadimlarga borib taqaladigan" shaxs ekaniga guvohlik berish uchun Xudo tomonidan oldindan belgilab qo'yilgan edi.

Shunday qilib, Uning tug'ilishi aniq bir maqsadga muvofiq bo'lgan. U tug'ilishdan avval tug'ilish haqida o'ylagan. Bu rejani Otasi bilan birga tuzgan. Bu buyuk rejaning bir qismini U yer yuzidagi hayotning so'nggi damlarida tilgan oldi: "Men haqiqat to'g'risida shohidlik qilmoq uchun tug'ilganman, ana shu maqsadda olamga keldim. Haqiqat tarafida bo'lgan har bir odam Menga quloq soladi" (Yuhanno 18:37).

U abadiy Haqiqat edi. U faqat haqiqatni gapirgan. U muhabbatning eng buyuk haqiqatiga xos harakat qilgan. Haqiqatdan tug'ilganlarning barchasini U O'zining abadiy oila uchun yig'moqda. Bu reja azaldanoq tuzilgan edi.

"Mavlud va Haqiqat Sababchisi" nomli maqolasidan olingan

Siz Ishonishingiz Uchun

Masihning Kelishi | 22 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Isoning bu kitob tarkibiga kiritilmagan yana ko'p mo'jizali alomatlariga shogirdlar guvoh bo'lganlar. Kitobga kiritilgan mo'jizalar esa sizlar uchun yozilgan. Toki sizlar Isoning Masih, Xudoning O'g'li ekanligiga ishonib, bu imoningiz tufayli hayotga ega bo'linglar. (Yuhanno 20:30-31)

Jamoatda ulg'aygan va uyqusida ham imonimizning buyuk ta'limotini aytib bera oladigan, shu bilan birga, Havoriyalar ishonch belgisini aytayotganda esnaydigan biz kabi odamlar orasida azalda Otadan tug'ilgan, Xudoning barcha ulug'vorliklarini aks ettiradigan, Uning shaxsiyatini ifoda etadigan Xudo O'g'liga nisbatan hayratni, Unga bo'lgan ehtiromni, qo'rquvni va hayratni yana bir marta his qilishimiz uchun oramizda nimadir qilinishi lozimligini yaqqol his qilaman. Xudo borliqdagi hamma narsalarni U orqali yaratgan va O'z Kalomining kuchi bilan borliqni saqlab turibdi.

Siz bu olamda mavjud bo'lgan har qanday ertaklarni, detektiv asarlarni, sharpalar haqidagi hikoyalarni o'qishingiz mumkin, biroq ularning hech biridan Xudo O'g'lining inson qiyofasiga kirishidek hayratlanarli, aql bovar qilmas narsalarni topa olmaysiz.

Biz naqadar o'likmiz! Sening shon-shuhratingga, Sen haqingdagi hikoyalarga qanchalik beparvomiz, ey Xudoyim! Men necha martalab tavba qilishim va "Xudoyim, inson o'ylab topgan hikoyalar Sen haqingdagi haqiqiy hikoyalarga qaraganda ko'proq meni hayratga solgani, ajablantirgani, tuyg'ularimni junbushga keltirgani va menda quvonch uyg'otganidan afsusdaman", deyishim kerak edi.

Ehtimol, koinot haqidagi zamonaviy filmlar bizga oz bo'lsa ham foydali bo'lishi mumkin: biz boqiy Xudo haqida, Masihning buyuk ulug'vorligi haqida, Nosiralik Iso orqali Ular bilan bizning oramizdagi haqiqiy jonli aloqa haqida o'ylaganimizda, ayrim mo'jizalarga, hayratlanishga va ajablanishga qodir ekanimizni ko'rsatish orqali ular bizni kamtar bo'lishga va tavba qilishga undashi mumkin.

Iso "Men ana shu maqsadda olamga keldim" (Yuhanno 18:37) deganida, aqlga sig'maydigan, g'alati va sirli gapni aytgan. Bunday so'zlarni ilmiy fantastikaga oid hech bir kitobdan topa olmaysiz.

Xudoning Ruhi sizni ham meni ham to'ldirishi uchun, Muqaddas Ruh shiddat bilan hayotimga kirib, Xudoning tasavvurga sig'maydigan haqiqati tomon moyillik uyg'otishi uchun iltijo qilaman.

Kun kelib, kun chiqardan kun botarga qadar osmonni momoqaldiroq qoplaydi va bulutlar uzra Inson O'g'li qudratli farishtalari bilan birga alanga ichida zohir bo'ladi. Biz Uni yaqqol ko'ramiz. Qachonlardir dahshatdan yoki kuchli hayajondan qanday qilib uzoq yillar davomida beziyon, mehribon Masih bilan yashaganimizni o'ylab zir titraymiz.

Bu narsalar, aniqrog'i, butun boshli Kalom biz ishonishimiz, Iso Masih Xudoning yer yuziga kelgan O'g'li ekanidan hayratga tushishimiz uchun yozilgan.

“Mavlud va Haqiqat Sababchisi” nomli maqolasidan olingan

23-DEKABR

Xudoning Ta'riflab Bo'Imas

In'omi

Masihning Kelishi | 23 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Biz hali Xudoning dushmanlari bo'lgan paytimizda, Xudo O'z O'g'lining o'limi orqali bizlarni O'zi bilan yarashtirdi. Biz endi Xudo bilan yarashgan ekanmiz, albatta O'g'lining hayoti tufayli najot topamiz. Bundan tashqari, biz Rabbimiz Iso Masih tufayli Xudo bilan bo'lgan munosabatimizdan faxrlanamiz. Axir, Iso Masih orqali biz Xudo bilan yarashganmiz-ku. (Rimliklar 5:10-11)

Biz qanday qilib Xudo bilan yarashishimiz va U bilan quvonishimiz mumkin? Bunga Iso Masih orqali erishamiz. Bu esa eng kamida Muqaddas Kalomdan Isoning tasvirini yasashimizni anglatadi, ya'ni Isoning Yangi Ahdda ifodalangan ishlari hamda so'zlari bo'yicha Xudodagi shodligimizning asosini tashkil etadigan tasvirni yasashimizni anglatadi. Masihsiz Xudodan shodlanish Masihni ulug'lamaydi. Masih ulug'lanmagan joyda Xudo ulug'lanmaydi.

Pavlus 2-Korinfliklar 4:4-6 – oyatlarda o'zgarishni ikki yo'l bilan tasvirlagan. 4 – oyatda “Xudoning aniq tasviri bo'lgan Masihning ulug'vorligini” ko'rsatgani haqida aytgan bo'lsa, 6 – oyatda “Iso Masih siymosida porlab turgan O'z ulug'vorligini” ko'rsatgani haqida gapirgan. Ikkala holatda ham uning nima demoqchi ekanini tushunasiz. Bizda Xudoning aniq tasviri bo'lgan Masih bor hamda Masihning siymosida porlab turgan Xudo bor. Xudodan xursand bo'lish uchun biz Iso Masihning tasvirida Xudo haqida ko'rgan va bilgan narsalarimizdan quvonamiz. Bu esa, Rimliklar 5:5 – oyatda aytilganidek, Muqaddas Ruh orqali yuraklarimiz Xudoning sevgisiga to'lib-toshganida to'liq o'z ifodasini topadi. 6 – oyatda yozilgan tarixiy haqiqatdan iborat so'zlar haqida, ya'ni “Biz chorasiz bo'lganimizda, belgilangan vaqtda Masih biz – betavfiqlar uchun o'ldi”, degan oyat haqida mulohaza qilganimizda, Muqaddas Ruh tomonidan bizga berilgan bu shirin tuyg'u bizga vositachilik qiladi.

Xullas, Mavludning mohiyati shunday. Xudo bizni Rabbimiz Iso Masihning o'limi orqali nafaqat O'zi bilan yarashtirdi (Rimliklar 5:10) yoki bizga Rabbimiz Iso Masih orqali bu yarashuvni qabul qilish imkonini berdi, balki hozir ham Ruh orqali, Rabbimiz Iso Masih orqali biz Undan quvona olamiz (Rimliklar 5:11).

Iso bizni Xudo bilan yarashtirdi. Bu yarashtiruv tuhfasini olishga va uni ochishga Uning O'zi bizni loyiq qildi. Isoning O'zi ta'rifga sig'maydigan in'om sifatida, inson qiyofasidagi Xudo sifatida nur sochadi va Xudoga nisbatan quvonch uyg'otadi.

Bu Mavludda Isoga diqqat qiling. U erishgan yarashtiruvni qabul qiling. Bu in'omni yopiq holicha tokchaga qo'ymang. Uni ochganingizda, Xudo bilan yarashish in'omi - Xudoning O'zi ekanini esga oling.

Unda xursand bo'ling. Uni rohatingiz sifatida his qiling. Uni xazinangiz sifatida bilib oling.

“Rabbimiz Iso Masih orqali Xudodan Shodlanamiz” nomli maqolasidan olingan

Mavlud uchun Ikki Maqsad

Masihning Kelishi | 24 - kun

Jon Payper tomonidan yozilgan

Aziz bolalarim, hech kim sizlarni aldamasin. Adolatli ish qiluvchi har qanday odam xuddi Masih singari odildir. Gunoh qiluvchi esa iblis zotidandir. Chunki iblis azaldan gunoh qilib kelyapti. Ammo Xudoning O'g'li iblisning ishlarini barbod qilish uchun keldi. (1-Yuhanno 3:7-8)

1-Yuhanno 3:8 – oyatda “Ammo Xudoning O'g'li iblisning ishlarini barbod qilish uchun keldi”, deganda iblisning qaysi ishlarini nazarda tutgan? Buning javobi parchaning o'zida berilgan.

Birinchidan, 1-Yuhanno 3:5 – oyatda “Masih esa gunohlarimizni yuvish uchun kelganini bilasizlar”, deb yozilgan. *Keldi* so'zi 5 – oyatda ham 8 – oyatda ham uchraydi. Xullas, Iso barbod qilish maqsadida kelgan “iblisning ishlarini” gunohlardir. 8 – oyatning birinchi qismi bu bahsga chek qo'yadi: “*Gunoh qiluvchi* esa iblis zotidandir. Chunki iblis azaldan gunoh qilib kelyapti.”

Bu parchadagi asosiy muammo kasalliklar, buzilgan mashinalar yoki betartib jadvallar emas, balki *gunoh qilishdir*. Bizga gunoh qilishni to'xtatish imkonini berish uchun Iso bu olamga kelgan.

Agar bu haqiqatni 1-Yuhanno 2:1 dagi haqiqat bilan yonma-yon qo'ysak, yanada aniqroq tushunib yetamiz: “Aziz bolalarim, *gunoh qilmanglar deb*, men sizlarga shularni yozyapman.” Mana shu narsa Mavludning ulug' maqsadlaridan biri, ya'ni Xudoning inson qiyofasiga kirishidagi buyuk maqsadlaridan biridir (1-Yuhanno 3:8).

Biroq yana bir maqsad bor bo'lib, Yuhanno bu maqsadni 1-Yuhanno 2:1-2 oyatlarda keltirgan: “Bordi-yu, birortamiz gunoh qilib qo'ysak, Otamiz Xudoning oldida homiyimiz – Iso Masih bor, U Solih Zotdir. U bizni gunohlarimizdan poklash uchun qurbon bo'ldi. Nafaqat bizning, balki butun dunyoning gunohlari uchun qurbon bo'ldi.”

Endi, bu nimani anglatishiga qarang: Buning ma'nosi shuki, Iso ikki sababga ko'ra bu dunyoga kelgan. Biz gunoh qilib yashashda davom etmasligimiz uchun kelgan, ya'ni iblisning ishlarini barbod qilish uchun kelgan (1-Yuhanno 3:8); hamda mabodo biz gunoh qilib qo'ysak, gunohlarimizdan poklash uchun kelgan. Gunohlarimiz tufayli keladigan Xudoning g'azabini qaytaruvchi qurbonlik bo'lish uchun kelgan.

Ushbu ikkinchi maqsadning natijasi birinchi maqsadni yo'q qilish emas. Kechirim berish – gunoh qilishda davom etishga ruhsat berish emas. Masihning bizning gunohlarimiz uchun o'lishidan maqsad gunohga qarshi kurashishimizni susaytirish emas. Aksincha, Mavludning bu ikki maqsadi natijasi barcha gunohlarimiz uchun bir marta to'langan to'lov gunohga qarshi kurashishimizga imkon beradigan ozodlik va kuch bo'lib, bu ozodlik va kuch asosida najotga o'z kuchi bilan erishishga harakat qiladigan qonunchilar yoki topgan najotidan ayrilib qolishdan qo'rqadigan odamlar kabi emas, balki ishonch va quvonch bilan, hatto jonini xatarga qo'yib bo'lsa ham gunohga qarshi kurashga kirishadigan g'olib insonlardek kurashamiz.

“Xudoning O’g’li Iblisning Ishlarini Barbod Qilish uchun Keldi” nomli maqolasidan olingan

Mavludning Uch Hadyasi

Mavlud kuni

Jon Payper tomonidan yozilgan

Aziz bolalarim, hech kim sizlarni aldamasin. Adolatli ish qiluvchi har qanday odam xuddi Masih singari odildir. Gunoh qiluvchi esa iblis zotidandir. Chunki iblis azaldan gunoh qilib kelyapti. Ammo Xudoning O'g'li iblisning ishlarini barbod qilish uchun keldi... Aziz bolalarim, gunoh qilmanglar deb, men sizlarga shularni yozyapman. Bordi-yu, birortamiz gunoh qilib qo'ysak, Otamiz Xudoning oldida homiyimiz – Iso Masih bor, U Solih Zotdir. U bizni gunohlarimizdan poklash uchun qurbon bo'ldi. Nafaqat bizning, balki butun dunyoning gunohlari uchun qurbon bo'ldi. (1-Yuhanno 3:7-8; 2:1-2)

Bu ajoyib holat haqida men bilan birga mulohaza qiling. Agar Xudoning O'g'li gunoh qilishni to'xtatishingizga yordam berish uchun – iblisning ishlarini barbod qilish uchun kelgan bo'lsa hamda gunoh qilib qo'yganingizda sizni poklash va Xudoning g'azabini qaytarish uchun O'zini qurbon qilish maqsadida kelgan bo'lsa, bu narsa hayot kechirishingiz uchun sizda nimalar borligini bildiradi?

Uchta narsa borligini bildiradi. Ularga ega bo'lish juda yaxshi. Bu narsalarni Mavlud tuhfası sifatida sizga beraman.

1 - Tuhfa. Yashash uchun aniq maqsad.

Bu narsa yashash uchun aniq maqsad borligini bildiradi. Yoqimsiz tomoni shunchaki: gunoh qilmang – Xudoni tahqirleydigan narsalarni qilmang. “Gunoh qilmanglar deb, men sizlarga shularni yozyapman” (1-Yuhanno 2:1). “Xudoning O'g'li iblisning ishlarini barbod qilish uchun keldi” (1-Yuhanno 3:8).

Agar siz mendan: “Yoqimsiz tomonlaridan tashqari, ijobiy jihatlarini ham ayta olasizmi?”, deb so'rasangiz, “Ha” deb javob beraman. Buning bari 1-Yuhanno 3:23 – oyatda berilgan. Bu oyat Yuhanning butun boshli maktubiga xulosa yasaydi. Yagona “amr”ga e'tibor bering – “Xudoning *amri* esa Uning O'g'li Iso Masihga ishonishdan va Masih buyurganidek, bir-birimizni sevishdan iboratdir.” Bu ikki narsa bir-biriga shunchalik bog'liqlik, Yuhanno ularni bitta amr deb atagan: Isoga ishonish va boshqalarni seving. Sizning maqsadingiz mana shu. Masihiycha hayotning mohiyati shu. Isoga ishonish, Iso va Uning havoriylari o'rgatganidek boshqalarni sevis. Birinchi tuhfa mana shu: yashash uchun maqsad.

2 - Tuhfa. Qilgan xatolarimiz kechirilishiga bo'lgan umid.

Masih gunoh ishlarimizga chek qo'yish va gunohlarimizni kechirish uchun kelgani haqidagi ikki haqiqatning ikkinchisi quyidagicha: qilgan xatolarimiz kechirilishiga umidimiz bo'lganida, gunohlarimizni yengishda rivojlanib boramiz. Xudo xatolaringizni kechirishiga umidingiz bo'lmasa, gunohga qarshi kurashni boshlaganingizda, albatta taslim bo'lasiz.

Ko'pchiligingiz bu yangi yilda ayrim o'zgarishlarni amalga oshirish haqida o'ylayapsiz, chunki gunoh ishlarga berilib ketgansiz va bundan qutulishni istaysiz. Ovqatlanish borasida yangi o'zgarishlar qilishni xohlaysiz. Ko'ngil ochishni yangi usullarini xohlaysiz. Berishning yangi usullarini, turmush o'rtog'ingiz bilan yangicha munosabatni, oilaviy bag'ishlanishning yangi usullarini, uxlash va mashq qilishning yangi usullarini, shohidlik qilishda yangicha g'ayratni xohlaysiz. Biroq bu usullar foyda berarmikin, degan xayol sizni qiynaydi. Shunday qilib, Mavlud bayrami uchun sizga atalgan ikkinchi tuhfa shunday: Masih nafaqat iblisning ishlarini barbod qilish – sizni gunoh ishlardan qaytarish uchun, balki kurashlardagi omadsizliklarga duch kelishimiz tufayli bizga Homiy bo'lish uchun ham kelgan.

Xullas, sizdan iltimosim shuki, gunohga qarshi kurashdagi omadsizlik sizga nisbatan hal qiluvchi so'zga ega emasligi haqiqati sizga gunohga qarshi kurashishingiz uchun umid bersin. Ehtiyot bo'ling! Agar siz Xudoning inoyatini gunoh qilishga ruxsatnoma deb qabul qilsangiz va "agar xato qilsam va buning ahamiyati bo'lmasa, gunohga qarshi kurashishni nima keragi bor?", deb o'ylasangiz hamda gunoh qilishda davom etsangiz, demak siz qaytadan tug'ilmagansiz. Bu narsa sizni tashvishga solishi kerak.

Lekin ko'pchiligingiz bunday emassizlar. Ko'pchiligingiz hayotingizdagi gunohli odatlarga qarshi kurashishni xohlaysiz. Xudo sizlarga shunday demoqda: Masih tomonidan gunohlaringizning kechirilishi sizlarga umid baxsh etsin. "Gunoh qilmanglar deb, men sizlarga shularni yozyapman. Bordi-yu, gunoh qilib qo'ysangiz, homiyingiz Iso Masih bor."

3 – Tuhfa. Masih bizga madad beradi.

Va nihoyat, Masih gunoh ishlarimizga chek qo'yish va gunohlarimizni kechirish uchun kelgani haqidagi ikki haqiqatning uchinchi shunday: Gunohga qarshi kurashda Masih bizga rostdan *yordam* beradi. U albatta sizga madad beradi. U siz tomonda. U gunoh qiziq bo'lgani uchun emas, gunoh o'limga sabab bo'lgani uchun uni barbod qilgani kelgan. Gunoh – iblisning aldovlari bo'lib, agar unga qarshi kurashmasak, bizni halok qiladi. Masih esa bizga yordam bergani kelgan, bizni qiynagani emas.

Shunday qilib, Mavlud bayrami uchun sizga beriladigan uchinchi tuhfa shu: Masih sizdagi gunohlarni yengishingizda sizga yordam beradi. 1-Yuhanno 4:4 – oyatda shunday yozilgan: "Ichingizdagi Ruh dunyodagi shaytondan ustundir." Iso tirik, U barhayot, imon orqali Iso ichimizda yashaydi. U biz tomonda, bizga qarshi emas. Yangi yilda gunohga qarshi kurashishda U sizga madad beradi. Unga ishonib.

"Xudoning O'g'li Iblisning Ishlarini Barbod Qilish uchun Keldi" nomli maqolasidan olingan